

**“FARG‘ONA TONG OTGUNCHA” ASARIDA QO’LLANGAN  
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TAHLILI**

*Ximmatova Gulnora Aliqul qizi*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Gumanitar fanlar akulteti Gumanitar fanlar fakulteti*

*O’zbek tili va adabiyoti yo ‘nalishi 2-bosqich talabasi*

*Sotimboyeva Dilnura Axmedjon qizi*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Gumanitar fanlar fakulteti Gumanitar fanlar fakulteti*

*O’zbek tili va adabiyoti yo ‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mirzakalon Ismoiliyning “Farg‘ona tong otguncha” asarida qo’llangan frazeologik birikma ya’ni iboralar tahvilga tortilgan. Qolaversa, tilshunoslikda iboralarning o’rni haqida ma’lumotlar keltirib o’tilgan.

**Kalit so‘zlar:** frazema, xarakter, yuragi yorilmoq, chehrasi ochilmoq, ijodkor mahorati, lug‘at, yaxlit birlilik, polisemiya, monosemiya, ifoda plan, semantik tarkib.

O’zbek tilshunosligida o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan til birliklaridan biri bu frazemalardir. Ushbu birliklar nutqning ta’sirchan, aniq va lo‘nda tuzilishiga turtki bo‘luvchi muhim til strukturalaridir. Frazeologik birlilik, frazema — ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanmalarning umumiyligi nomi<sup>11</sup>. Frazemalar, shaklan o‘zlariga o‘xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so‘zlarni erkin tanlash, almashtirish yo‘li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma’no va muayyan leksik-grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo‘llanadi, ya’ni frazemalar tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas: anqoning urug‘i, arpasini xom urmoq, chuchvarani xom sanamoq, terisiga sig‘may ketmoq, kapalagi uchmoq, ko‘ngli joyiga tushmoq, qo‘li ochiq, qulog‘i og‘ir va boshqa frazemalar tarixiy qo‘llanish me’yorlariga, usullariga ega bo‘lib, ularning ma’nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi. Mirzakalon Ismoiliyning “Farg‘ona tong otguncha” romanida ham xuddi shunga o‘xshash iboralarning rang barang tovlanishlarini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu asarda frazemalar ustalik bilan qo‘llanganki, xatto ko‘plab ma’no beruvchi bir nechta iboralar sinonimlari, o‘xshashlari va variantdoshlar bilan asarning tilini boyitgan. Qolaversa birgina ibora bir necha ma’nolarda qo‘llangan. Masalan, *yuragi o‘ynamoq* iborasi asarning bir joyida muhabbatdan yurakning hayajonga to‘lishi, ikkinchi joyida qo‘rquv va

<sup>1</sup> [uz.m.wikipedia.org](http://uz.m.wikipedia.org).

gumondan yurakning bezovtalanishi ma’nosida qo‘llangan. Asar muallifi qahramonlarning ichki kechinmalarini, ularning yuz ifodasini iboralar bilan yaxshi tasvirlagan. Romanda bugungi kunda ham, asar yozilgan davrda ham keng qo‘llangan yurak so‘zi bilan bog‘liq iboralar ko‘p va o‘rinli qo‘llangan.

Yuragi qisilmoq	Nimadandir yuragi bezovta bo‘lmoq
Yuragi potirlamoq	1.Qo‘rqmoq, 2. hayajonlanmoq
Yuragi betlamadi	Biron ish qilishga hafsalasi bo‘lmaslik
Yuragi to‘kilmoq	1.Dardini aytmoq, 2.yuragi ado bo‘lmoq
Yuragi yorilmoq	1.To‘satdan qo‘rqmoq, 2.dardini aytmoq
Yuragi shig‘illamoq	1.Hayajondan bezovtalanmoq, 2.Qo‘rquvdan bezovtalanmoq
Yuragiga o‘t yoqmoq	Yaxshi ko‘rdirmoq
Yuragi qinidan chiqib ketmoq	Bexosdan qattiq qo‘rqib ketmoq

Bu iboralarning barchasi mana shu ma‘nolarda qo‘llangan.

Qolaversa, asarda gapirish bilan bog‘liq iboralar ham yaxshi qo‘llangan: *Ikki chol churq etmay o‘tirdi-* umuman gapirmaslik, *og‘ziga talqon solganday-* so‘z aytmaslik, *til tegizmoq* – gapirib o‘tib ketish ma’nosida kelgan, *o‘tirsak o‘tiraveramiz dedi, xotin gapni yulib-* gapni bo‘lmoq, *og‘iz solmoq-* kimnidir qizini kelinlikka so‘rash ma‘nosida kelgan.

Asarda *ko‘ngli ko‘tarilmoq-ko‘ngli cho‘kmoq, xushini olmoq-xushini bermoq chehrasi ochilmoq-qovog‘i solinmoq* kabi antonim, *xushini olmoq-oromini olmoq, dili qon bo‘lmoq-dili pora bo‘lmoq* kabi sinonim iboralar qahramonlarning ruhiy holatini yaxshi ochib bergen.

“Fag‘ona tong otuncha” romanida o‘sal bo‘lmoq iborasi uyalmoq ma’nosida ishlatilgan. Esi ketmoq iborasi esa hayrat va havas ma’nolarida kelgan: ...*kiyimlarga esi ketib qarab turardi. G‘ulomjon kayfini buzmad* i gapida qo‘llangan ibora parvo qilmaslik, ahamiyat bermaslik ma’nosida ishlatilgan. *Qo‘l urmoq, qalam urmoq* iboralari harakat ma’nosini ifodalagan. Bugungi kunda *qalam urmoq iborasi qalamda yozmoq ma‘nosida* deyarli qo‘llanilmaydi. Romandagi *istarasi issiq, qo‘lini qovushtirmaq, rangi o‘chmoq, ichini yemoq* va boshqa bir qancha iboralar bugungi kunda ham keng qo‘llanmoqda.

Frazemalar turg‘un birikma bo‘lsa ham vaqt o‘tishi bilan ularning so‘z tarkibida yoki ma’nosida bir qancha o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Asarlar yozilish jarayonida esa so‘z san’atkorlari bo‘lmish yozuvchi, shoirlarimiz tomonidan ham iboralar yaratiladi va tilga singib ketadi. “Farg‘ona tong otguncha” romanida ham yuqorida keltirilgan frazemalarda boshqa yana bir qancha iboralarni so‘z ustalarining ijod mahsuli desak xato bo‘lmaydi. Quyidagi gaplarda iboralar juda ham ta’sirli va chiroyli

ishlatilgan:

*G‘ulomjon uning jamolini ko‘rib surat bo‘lib qoldi- mahliyo bo‘lmoq*

*Dehqon qishin –yozin ishlaydiyu, kuzga borib iligi quriydi- ovora bo‘lmoq*

*Madaminxo‘ja esa boshini solintirib mumdek erib turardi- nimadandir rohat qilmoq*

*Rang barang toshlar o‘z jimirlari bilan ko‘z o‘g‘irlar edi<sup>2</sup> – o‘ziga maftun etmoq*

Romanda bugungi kunda kam qo‘llanilayotgan *nonni tuya qilmoq* iborasi ham ishlatilgan. Bu frazemaning ma’nosи nonni yarimta qilish, luqmasiga sherik bo‘lish ma’nosini ifodalaydi. Asarda ham aynan shu ma’noda qo‘llangan.

Guvohi bo‘lganimizdek, “Farg‘ona tong otguncha” romanida frazemalarda frazeologik monosemiya (frazemaning tarkibida bitta frazeologik ma’nuning bo‘lishi)ni ham, frazeologik polisemiya (frazemaning tarkibida ikki yoki undan ko‘p ma’nuning bo‘lishi)<sup>3</sup>ni ham ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari romanda qo‘llanilgan frazemalarning semantik tarkibidagi turkum semalari ham xilma- xildir. Masalan: fe’l frazema – *boshiga savdo tushmoq*, ravish frazema- *og‘ziga talqon solganday*, ravish frazema- *ko‘ngli cho‘kib*.

Xulosa qilib aytganda, “Farg‘ona tong otguncha” asaridagi frazemalarning qo‘llanilishi, ularning turli ma’nolarni ifodalashi va emotsiyal ekspressivligi o‘ziga xoslikni namoyon qilgan. Yozuvchi har bir frazemani shunday qo‘llaganki, uning ma’nosи kontekstdan oson anglashiladi. Ba’zi bir joylarda esa iboralarning boshqa ma’nolarini ham ustalik bilan ochib bergen. Har bir asarda qo‘llangan har qanday til birligi tilimizning imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi, lekin ko‘proq frazemalar o‘zining uslubiy bo‘yoqdorligi va ma’no qirralari bilan boshqa til birliklaridan ajralib turadi. Frazemalar bir songa teng ma’noni ifodalaydigan kontstruksiya bo‘lgani uchun ular lug‘atlarga kiritiladi. “Farg‘ona tong otguncha” asarida qo‘llangan iboralar orqali o‘zbek tilimizning lug‘at boyligi yetarlicha ekanligini yana bir bor anglab yetamiz. Birgina asardan shunchalik rangbarang va salmoqli iboralarni tahlilga oldik, bundan ko‘rinadiki hali qo‘l urilmagan qanchadan qancha ishlar bor. Frazemalarning qo‘llanishini boshqa asarlarimizda ham har jihatdan o‘rgansak, bundan ham yangi frazemalarga va ularning ifoda va mazmun planlariga duch kelishimizga ishonamiz.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Mirzakalon Ismoilov, .Farg‘ona tong otguncha (Birinchi kitob:”Qa’r guldurosi”)- T.:”Sharq”, 2010, 464 b.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili –T: “Talqin”, 2005, - 260- b.
3. uz.m.wikipedia.org.

<sup>2</sup>Ismoilov M.Farg‘ona tong otguncha(Birinchi kitob:”Qa’r guldurosi”)- T.:”Sharq”, 2010, - 8-11 -b.

<sup>3</sup>Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili –T: “Talqin”, 2005, - 219- b.